

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-fevral

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlari hajmi 6474,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Yashnobod tumanida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati 134,2 % ga yetdi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirilishi va modernizatsiya qilinishi aholining turmush darajasini, investitsion muhitni, ishbiarmonlik sharoitlarini yaxshilashga va tadbirkorlikni rivojlantirishga yordam bermoqda.

Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan islohotlar bozor xizmatlarining 12,9 foizga oshishiga yordam berdi. 2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 6 474,5 mlrd.so'mni tashkil etdi.


Xizmatlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo xizmatlari (28,8%), moliyaviy xizmatlari (24,0%), transport xizmatlar (12,1%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (10,1%) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar tarkibi, % da



Pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni kengaytirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlar moliyaviy xizmatlar hajmini 35,5 % ga oshirish imkonini berdi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Shu bilan birga, eng yuqori o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (125,9 %), transport xizmatlari (121,8%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,9%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarida (114,0%) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (108,9%) kuzatilmoqda.

Eng yuqori bozor xizmatlari hajmi savdo xizmatlari (1 866,9 mlrd.so'm), moliyaviy xizmatlari (1 553,3 mlrd.so'm), transport xizmatlar (785,8 mlrd.so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (654,2 mlrd.so'm) bo'yicha kuzatilmoqda.


2018 yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari hajmining oshishi yuklar va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga bo'lgan talabning oshganligi hamda turizm faoliyatini jadal rivojlantirish, savdo tarmoqlarini kengaytirish, bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirish jarayonlarining davom ettirilayotganligi bilan izohlanadi.

Yuklarni va yo'lovchilarni tashishda avtomobil transporti muhim rol o'ynaydi. Hududlar o'rtasida avtomobil transporti xizmatlari hajmida eng yuqori ulushlar Shayxontohur (13,3 %), Yashnobod (11,4 %), Mirzo Ulug'bek (10,6 %), Uchtepa (10,4 %), Chilonzor (10,3 %), Yunusobod (10,3 %) va Olmazor (10,2 %) tumanlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmida tumanlarning ulushi, % da




Vaqt o'tishi bilan avtomobil transporti orqali tashishning ahamiyati ortib boradi, chunki u tezroq va ishonchli hisoblanadi hamda yuklarni yuqolishi va zarar yetish xavfi pastroq darajadali bilan ajralib turadi. Shu sababli, avtomobil transporti O'zbekistondan eksport qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik buyumlari va boshqa noxom-ashyo tovarlarni tashishning ma'qul vositasi hisoblanadi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 135,5 % ga etdi.


Eng yuqori o'sish sur'atlari Yashnobod (181,3 %), Mirobod (154,2 %), Mirzo Ulug'bek (153,6 %), Bektemir (145,5 %) va Yakkasaroy (128,6 %) tumanlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar oyida tumanlar bo'yicha moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da



Jahon bozorining rivojlanish tahlili shuni ko'rsatmoqdaiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlar uchun yangi bozorlarni yaratish va mavjudlarini kengaytirishga yordam beradi, pirovard natijada aholining turmush sifatini oshirishga erishiladi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida tumanlarning ulushi, % da



Tumanlar orasida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida eng yuqori ulushlar Yunusobod tumaniga (48,2 %), Mirobod tumaniga (22,5 %), Yakkasaroy tumaniga (9,8 %) va Shayxontohur (7,1 %) tumaniga to'g'ri keladi .

Ta'lim sohasidagi islohotlarni davom ettirish, o'qitish uslubiyatlariga innovatsion yondashuvlarni joriy etish ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 8,9 foizga oshdi va 288,0 mlrd.so'mni tashkil qildi. Bu oliy o'quv yurtlarida yuqori stavkali shartnomalar hisobiga xizmatlar hajmining oshganligi bilan izohlanadi.


2018 yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi, % da




Tumanlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng katta ulushi Olmazor (13,1 %), Mirzo Ulug'bek (8,0 %), Chilonzor (6,5 %), va Uchtepa (5,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishga bog'liqdir.

2018 yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahri bo'yicha xizmatlar umumiy hajmida tumanlarning ulushi, % da



Eng yuqori ulush Yunusobod (18,6%), Mirobod (16,4%), Shayxontohur (11,4%), Chilonzor (9,3%) va Yashnobod (9,3%) tumanlarida qayt etildi.



Ko'rsatilgan xizmatlarining umumiy hajmida eng past ulushlarni Bektemir (2,7%), Uchtepa (5,3%), Olmazor (5,3%) va Sergeli (5,8%) tumanlari egallaydi.

Tumanlar orasida eng katta hajm Yunusobod (1202,0 mlrd.so'm) va Mirobod (1060,7 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajm Bektemir (174,2 mlrd.so'm) va Uchtepa (342,2 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-fevral oylarida tumanlar bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Toshkent sh.	6474,5	112,9
tumanlar:		
Bektemir	174,2	103,6
Mirzo Ulug'bek	550,9	110,0
Mirobod	1060,7	122,5
Olmazor	346,0	105,9
Sergeli	372,0	129,3
Uchtepa	342,2	102,9
Chilonzor	601,5	106,8
Shayxontohur	738,3	104,0
Yunusobod	1202,0	117,3
Yakkasaroy	447,1	105,9
Yashnobod	600,6	134,2
Tumandan tashqarida	38,9	44,9

Toshkent sh.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: Aleshunina O.V.
(71) 230-88-15